

Impact Factor: 5.479

ISSN 2181-9505

Doi Journal 10.26739/2181-9505

Philosophy and Life

FALSAFA VA HAYOT • ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ

Special
Issue 1

2023



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI IMOM BUXORIY XALQARO
ILMIY-TADQIQOT MARKAZI
O'ZBEKISTON FALSAFA JAMIYATI

Международный научно-
исследовательский центр
Имам Бухари при Кабинете
Министров Республики Узбекистан
Философское общество Узбекистана

Imam Bukhari International
Research Center under the
Cabinet of Ministers of the
Republic of Uzbekistan
Philosophical Society of Uzbekistan

FALSAFA VA HAYOT XALQARO JURNAL

1 MAHCUS SON

ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР 1

PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL
SPECIAL ISSUE 1

Jurnal bir yilda 4
marta nashr qilinadi.



Журнал выходит
4 раза в год.



The journal is published
4 times in a year.



ISSN: 2181-9505
DOI: 10.26739/2181-9505



2023

FALSAFA VA HAYOT XALQARO JURNAL

№SI-1 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9505-2023-SI-1>

Tahrir kengashi:

Abdildina, R.J. — Qozog'iston FA akademigi, f.f.d., professor

Askarov, T.A. — Qirg'iziston FA akademigi, f.f.d., professor

Bazarbayev, J. — O'zbekiston FA akademigi, f.f.d., professor

Bashimov, V.V. — Turkmaniston milliy ta'lim instituti direktori

Werner Bush — dunyo professorlari uyushmasi exs prezidenti DSc, professor (Germaniya)

Mamedzade, I.R. — Azarbayjon FA Falsafa va sotsiologiya instituti direktori, f.f.d., professor

Morevedge, P. — AQSH dunyo olimlari departamenti raisi, DSc, professor

Nisanbayev, A.N. — Qozog'iston FA akademigi, f.f.d., professor

Skarantino, L.M. — Jahon falsafa jamiyatlar federatsiyasi prezidenti, DSc, professor (Italiya)

Smirnov, A.V. — Rossiya FA akademigi, Rossiya FA "Falsafa" instituti direktori, Rossiya Falsafa Jamiyati prezidenti, f.f.d., professor (Rossiya)

Tursunov, A. — Tojikiston FA akademigi, f.f.d., professor (Tojikiston)

Tsuy Veyxan — Xitoy ijtimoiy fanlar Akademiyasi vitse-prezidenti, DSc, professor, (Xitoy)

Chumakov, A.N. — Rossiya FA Falsafa instituti professori, f.f.d., (Rossiya)

Muassislar:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom al-Buxoriy xalqaro ilmiy - tadqiqot markazi

O'zbekiston falsafa jamiyati

OOO tadqiqot.uz

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining qarori bilan maxsus jurnallar ro'yxatiga kiritildi. 2018-yil 29-dekabrda 260/7 sonli bayonnomaga

Ro'yxatga olinganligi haqidagi 1175 sonli guvohnoma O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 20.02.2018 yilda berilgan.

Bosh muharrir:

Shermuhamedova, N.A., — f.f.d., professor (O'zbekiston)

Bosh muharrir o'rinbosari:

Muhamedova, Z.M., — f.f.d., professor (O'zbekiston)

Mas'ul muharrir:

Safayeva, S.X., — f.f.n., dotsent (O'zbekiston)

Tahrir hay'ati:

Allahyarova, T. — f.f.d., professor (Azarbayjon)

Andirjanova, G.A., — s.f.d., professor (Qozog'iston)

Abasov, A. S. — f.f.d., professor (Azarbayjon)

Ahamer, G. — PhD, professor (Avstriya)

B.K. Santosh Kukreja, — DSc, professor (Hindiston)

Bodio Todeush, — s.f.d., professor (Polsha)

Bilalov, M. I., — f.f.d., professor (Rossiya)

Berna, A., — PhD, professor (Turkiya)

Vefa Tashdelen, — f.f.d., professor (Turkiya)

Gabitov, T. X. — f.f.d., professor (Qozog'iston)

Guseynov, S. — f.f.d., professor (Azarbayjon)

Gezalov, A.A., — f.f.n., professor (Rossiya)

Ivatova, L.M., — s.f.d., professor (Qozog'iston)

Kurmangaliyeva, G.K., — f.f.d., professor (Qozog'iston)

Lazarevich, A.A., — f.f.n., professor (Belorussiya)

Muzaffarov, M. — f.f.d., professor (Tojikiston)

Morevedge, R. — DSc, professor (AQSH)

Naushanbayeva, A., Hakimogli, — PhD filos., professor (Turkiya)

Olatunji Felix. O. — DSc, professor (Nigeriya)

Paxruddinov, Sh. I., — s.f.d., professor (O'zbekiston)

Sadikova, N.N., — f.f.d., professor (Tojikiston)

Saifnazarov, I.S., — f.f.d., professor (O'zbekiston)

Sergeyev, M.Y., — PhD, professor (AQSH)

Telebayev, G.T., — f.f.d., professor (Qozog'iston)

To'rayev, B. O., — f.f.d., professor (O'zbekiston)

Urmanbetova, J.K., — f.f.d., professor (Qirg'iziston)

Chjan Baychun, — f.f.d., professor (Xitoy)

Shadmonov, Q.B., — f.f.d., professor (O'zbekiston)

Fiskier, A. — f.f.d., professor (Fransiya)

Yaxshilikov, J. — f.f.d., professor (O'zbekiston)

Yaskevich, Y.S., — f.f.d., professor (Belorussiya)

Ilmiy kotib:

Mahkamov, U. (O'zbekiston)

Musahhihlar:

Xidirov, M.T., (O'zbekiston)

Hamdamova, S. (O'zbekiston)

Madiyorova, V. (O'zbekiston)

Saurov, R.R., (O'zbekiston)

ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ

№SI-1 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9505-2023-SI-1>

Редакционный совет:

Абдильдина, Р. Ж. - академик НАН Казахстана, д. ф. н., профессор

Аскарлов, Т. А. - академик АН

Киргизистана, д. ф. н., профессор

Базарбаев, Ж. - академик АН Узбекистана, д. ф. н., профессор

Башимов, В. В. - директор национального института образования Туркменистана

Вернер Буш. - экз президент всемирной ассоциации профессоров, доктор философских наук, профессор, (Германия)

Мамедзаде, Н. Р. - д. ф. н., профессор, директор института "Философии и социологии" АН Азербайджана

Мореведж, П. - DSc, профессор, руководитель GSP США

Нысанбаев, А. Н. - академик АН

Казахстана, д. ф. н., профессор

Скарантино, Л. М. - президент всемирной федерации философских обществ д. ф. н., профессор (Италия)

Смирнов, А. В. - академик АН России, директор института Философии АН России, президент РФО, д. ф. н., профессор (Россия)

Турсунов, А. - академик АН

Таджикистана, д. ф. н., профессор

Цуй Вэйхан - Вице-президент

Института философии КАОН, д. ф. н., профессор (Китай)

Чумаков, А. Н. - проф РАН, д. ф. н., (Россия)

Учредители:

Международный научно-исследовательский Центр Имама аль Бухари при Кабинете Министров Республики Узбекистан

Философское общество Узбекистана,

ООО tadqiqot.uz

Решением Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан введен в список специальных журналов. 2018 год 29 декабря протокол №260/7

Регистрационное свидетельство №1175 выдано 27.02.2018 агентством по печати и информации Узбекистана

Главный редактор:

Шермухамедова, Н. А. - д. ф. н., профессор (Узбекистан)

Заместитель редактора:

Мухамедова, З. М. - д. ф. н., профессор (Узбекистан)

Ответственный редактор:

Сафаева, С. Х. - к. ф. н., доцент (Узбекистан)

Редакционная коллегия:

Аллахяр ова, Г. - д. ф. н., профессор (Азербайджан)

Андиржанова, Г. А. - д. п. н., профессор (Казахстан)

Абасов, А. - д. ф. н., профессор (Азербайджан)

Ахаммер, Г. - PhD, профессор (Австрия)

В. К. Сантош Кукреджа. - PhD, профессор (Индия)

Боджо Тоджун. - д. п. н., профессор (Польша)

Билалов, М. И. - д. ф. н., профессор (Россия)

Берна, А. - PhD- профессор (Турция)

Вефа Ташделен - д. ф. н., профессор (Турция)

Габитов, Т. Х. - д. ф. н., профессор (Казахстан)

Гусейнов, С. - д. ф. н., профессор (Азербайджан)

Гезалов, А. А. - к. ф. н., профессор (Россия)

Иватова, Л. М. - д. п. н., профессор, (Казахстан)

Курмангалнева, Г. К. - д. ф. н., профессор

(Казахстан)

Лазаревич, А. А. - к. ф. н., профессор (Беларусия)

Музаффаров, М. - д. ф. н., профессор (Таджикистан)

Мореведж, Р. — DSc, профессор (США)

Наушабаева, А., Хекимоглы - PhD, профессор

(Турция)

Олатунжи Феликс О. — DSc, профессор (Нигерия)

Пахруддинов, Ш. И. - д. п. н., профессор

(Узбекистан)

Садикова, Н. Н. - д. ф. н., профессор (Таджикистан)

Санфазаров, И. С. - д. ф. н., профессор (Узбекистан)

Сергеев, М. Ю. - PhD, профессор (США)

Телебаев, Г. Т. - д. ф. н., профессор (Казахстан)

Тураев, Б. О. - д. ф. н., профессор (Узбекистан)

Урманбетова, Ж. К. - д. ф. н., профессор

(Киргизия)

Чжан Байчун - д. ф. н., профессор (Китай)

Шадманов, К. Б. - д. ф. н., профессор (Узбекистан)

Фишлер, А. - д. ф. н., профессор (Франция)

Яхшилик, Ж. - д. ф. н., профессор (Узбекистан)

Яскевич, Я. С. - д. ф. н., профессор (Беларуссия)

Ученый секретарь:

Махкамов, У. (Узбекистан)

Корректоры:

Хидиров, М. Т. (Узбекистан)

Хамдамова, С. (Узбекистан)

Маджарова, В. (Узбекистан)

Сауров, Р. Р. (Узбекистан)

PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL

№SI-1 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9505-2023-SI-1>

Editorial Council:

Abdildina, R.J. - academician AS of Kazakhstan, doctor of philos. sciences, professor
Askarov, T.A. - academician AS of Kyrgyzstan, doctor of philos. sciences, professor,
Bazarbaev, J. - academician AS of Uzbekistan, doctor of philos. sciences, professor
Bashimov B.B. - director of national Institute of education of Turkmenistan
Werner Bush - President of the World Association of Professors, DSc, professor (Germany)
Mamedzade, I.R. - director of Institute "Philosophy and sociology" AS of Azerbaijan, doctor of philosophical sciences, professor
Morewedge, P. - Editor-in-Chief, IGDE, DSc, professor USA
Nysanbaev, A.N. - academician AS of Kazakhstan, doctor of philos. sciences, professor
Scarantino, L.M. - President of International Federation of Philosophical societies, professor of philosophy and politics of culture, (Italy)
Smirnov, A.V. - Academician of the Academy of Sciences of Russia, Director of the Institute of Philosophy of the Academy of Sciences of Russia, President RFS, doctor of philos. sciences, professor (Russia)
Tursunov, A. - academician of the ASc of Tajikistan, doctor of philos. sciences, professor
Tsui Weihai - vice-President of the Institute of Philosophy CAAS, doctor of philos. sciences, professor (China)
Chumakov, A.N. - professor RAN, doctor of philos. sciences (Russia)

Founders:

Imam al Bukhari International Research Center under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan Philosophical Society of Uzbekistan
ООО tadqiqot.uz

By the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan entered into the list of special journals. 2018 December 29 Protocol №260 /7

The registration certificate № 1175 was issued on February 27, 2018 by the Uzbek Agency for Press and Information

Editor-in-Chief

Shermukhamedova, N.A. - doctor of philos. sciences, professor (Uzbekistan)

Deputy Editor:

Mukhamedova, Z.M. - doctor of philos. sciences, professor (Uzbekistan)

Managing editor:

Safaeva, S.Kh. - Ph.D. philos., (Uzbekistan)

Editorial team:

Allahyarova, T. - doctor of philos. sciences, professor (Azerbaijan)

Andirjanova, G.A. - doctor of political sciences, professor (Kazakhstan)

Abasov, A.S. - doctor of philos. sciences, professor (Azerbaijan)

Ahamer G. - PhD, professor (Austria)

B.K. Santosh Kulkredja. - PhD, professor (India)

Bodio Todeus. - doctor of political sciences, professor (Poland)

Bilalov, M.I. - doctor of philos. sciences, professor (Russia)

Berna, A. - PhD, professor (Turkey)

Vefa Tashdelen. - doctor of philos. sciences, professor (Turkey)

Gabitov, T.H. - doctor of philos. sciences, professor (Kazakhstan)

Guseynov, S. - doctor of philos. sciences, professor (Azerbaijan)

Gezalov, A.A. - PhD. of philos., associate professor (Russia)

Ivatova, L.M. - doctor of political sciences, professor (Kazakhstan)

Kurmangaliyeva, G.K. - doctor of philos., professor (Kazakhstan)

Lazarovich, A. A. - PhD philos., professor (Belarus)

Morewedge, R. - doctor of philology, professor (USA)

Muzaffarov, M. - doctor of philos. sciences, professor (Tajikistan)

Naushanbaeva, A., Hakimoglu. - PhD. philos., professor (Turkey)

Olatunji, Felix.O. - DSc, professor (Nigeria)

Pakiruddinov, Sh.I. - doctor of political sciences, professor (Uzbekistan)

Sadikova, N.N. - doctor of philos. sciences, professor (Tajikistan)

Saifnazarov, I.S. - doctor of philos. sciences, professor (Uzbekistan)

Sergeev, M.Yu. — PhD. philos., professor (USA)

Telebaev, G.T. - doctor of philos. sciences, professor (Kazakhstan)

Turaev, B.O. - doctor of philos. sciences, professor (Uzbekistan)

Urmanbetova, J.K. - doctor of philos. sciences, professor (Kyrgyzstan)

Zhang Baichun - doctor of philos. sciences, professor (China)

Shadmanov, Q. - doctor of philos. sciences, professor (Uzbekistan)

Fischler, A. - doctor of philos. sciences, professor (France)

Yaxshilikov, J. - doctor of philos. sciences, professor (Uzbekistan)

Yaskevich, Ya.S. - doctor of philos. sciences, professor (Belarus)

Scientific Secretary:

Mahkamov, U. (Uzbekistan)

Correctors:

Khilirov, M.T. (Uzbekistan)

Hamdamova, S. (Uzbekistan)

Madiyomva, V. (Uzbekistan)

Saurov, R.R. (Uzbekistan)

1. Mansur Yunusov DAVLAT XIZMATIDA JAMOATCHILIK BILAN ALOQALARNI RIVOJLANTIRISH	8
2. Mansur Yunusov DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARINING JAMOATCHILIK BILAN ALOQALAR XIZMATI	16
3. Mansur Yunusov SHARQDA JAMOATCHILIK BILAN ALOQLAR TALQINI VA RAHBARNING MA'NAVIY MULOQOT KOMPETENSIYASI	26
4. Пардаева Марҳабо Давлатовна АЛИШЕР НАВОЙИНИНГ НАҚШБАНДИЯ ТАРИҚАТИ ВА УНИНГ МАЪНАВИЙ АРБОБЛАРИГА МУНОСАБАТИ	32
5. Burkhanova Ma'mura Gulyamovna EDUCATION AS IMPARTIAL PART OF INTELLIGENCE	39
6. Burkhanova Ma'mura Gulyamovna INTELLIGENCE AS THE KINDNESS AND TOLERANCE POSTULATE (THE INTERPRETATION OF MEANINGIN PRACTICE)	43
7. Burkhanova Ma'mura Gulyamovna INTELLIGENCE AS THE KINDNESS AND TOLERANCE POSTULATE (THE INTERPRETATION OF MEANINGIN PRACTICE)	47
8. Danabayev Xurshid Napasovich JAMIYAT HAYOTIDA KAMBAG'ALLIK IJTIMOY HODISASI KO'LAMINI QISQARTIRISHDA MEHNAT TARBIYASINING AHAMIYATI	51
9. Makhmudova Aziza Nugmanovna THE ROLE OF BIOETHICS IN MODERN MEDICINE IN THE LIFE OF SCIENCE AND MODERN SOCIETY	59
10. Sultanova Gulnoza Sabirovna INSON INTELLEKTIGA TA'SIR ETUVCHI KONSTRUKTIV VA DESTRUKTIV OMILLAR (ijtimoiy-falsafiy taxlil)	64
11. Tashmetov Tuxtasin Xudayberganovich GLOBAL O'ZGARISHLAR DAVRIDA AXBOROT OLAMIDAGI YOT VA ZARARLI G'OYALARNING KO'RINISHLARI	71
12. Джуракулов Хусан Анварович ЗАМОНАВИЙ ЭКОТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ТАМОЙИЛЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ ТАХЛИЛИ	77
13. Дилноза Нарзикулова Хошимжоновна ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНИДА ОИЛАДАГИ МУНОСАБАТЛАРНИНГ БАРҚАРОРЛАШТИРИШДА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР	86



UDK: 1/14; 370; 17.

Tashmetov Tuxtasin Xudayberganovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti falsafa doktori (PhD)

E-mail: toshmetovtuxtasin@gmail.com

GLOBAL O'ZGARISHLAR DAVRIDA AXBOROT OLAMIDAGI YOT VA ZARARLI G'OYALARNING KO'RINISHLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSİYA

Global o'zgarishlar davrida muayyan kuchlar tomonidan yoshlarning ma'naviy-mafkuraviy jihatdan bo'ysindirish orqali o'ziga tobe etishga intilish ko'zatilmoqda. Ayniqsa, mafkuraviy ta'sir ko'rsatishda avvalo, ommaviy kommunikatsiya, axborot va targ'ibot vositalaridan keng miqyosda foydalaniladi. O'z navbatida, mazkur vositalar yordamida ommaning ruxiyatiga mafkuraviy ta'sir o'tkazish orqali jamoatchilik fikrini muayyan darajada shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ana shunday bir sharoitda, yoshavloda axborot xavfsizligi bo'yicha immunitet shakllangan bo'lsa, ularga hech qanday tahdidlar o'zlarining g'arazli ta'sirlarini o'tkaza olmaydi. Zero, yoshlar bizning kelajagimiz, ularni axborot ofatlaridan asrash davr talabi dir.

Kalit so'zlari: Davlat, jamiyat, targ'ibot, geosiyosat, axborot, globallashuv, internet, kommunikatsiya, g'oya, ma'naviyat, mafkura, texnologiya, intellektual, kompyuter, xuruj, tahdid, manipulyatsiya, fatvo, gedonizm, yevropasentizm, ekstremizm, manqurt, ijtimoiy tarmoq, demokratiya.

Ташметов Тухтасин Худайберг анович

Доцент, Узбекистан, Чирчик

ПРОЯВЛЕНИЯ ЧУЖДЫХ И ВРЕДНЫХ ИДЕЙ В МИРЕ ИНФОРМАЦИИ В ЭПОХУ ГЛОБАЛЬНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ

АННОТАЦИЯ

В эпоху глобальных перемен наблюдается стремление молодежи к подчинению через духовно-идеологическое подчинение определенными силами. В частности, при идеологическом воздействии в первую очередь широко используются средства массовой коммуникации, информации и пропаганды. В свою очередь, особое внимание уделяется формированию общественного мнения на определенном уровне путем идеологического воздействия на разрешения масс с помощью этих средств. В таких условиях, когда в йошавло сформирован иммунитет к информационной безопасности, никакие угрозы им не смогут оказать своего негативного воздействия. Ведь молодежь-это наше будущее, защита ее от информационных катастроф-требование времени.

Ключевые слова: Государство, Общество, пропаганда, геополитика, информация, глобализация, интернет, коммуникация, идея, духовность, идеология, технологии, интеллект,

компьютер, атака, угроза, манипуляция, фетва, гедонизм, европоцентризм, экстремизм, мангровые заросли, социальная сеть, демократия.

Tashmetov Tukhtasin Khudaiberganovich
Uzbekistan, Chirchik

MANIFESTATIONS OF ALIEN AND HARMFUL IDEAS IN THE WORLD OF INFORMATION IN THE ERA OF GLOBAL CHANGE

ABSTRACT

In the era of global changes, there is a desire of young people to submit through spiritual and ideological subordination by certain forces. In particular, the mass media of communication, information and propaganda are widely used in the first place with ideological influence. In turn, special attention is paid to the formation of public opinion at a certain level by ideological influence on the decisions of the masses with the help of these means. In such conditions, when immunity to information security is formed in yoshavlo, no threats to them will be able to have their negative impact. After all, young people are our future, protecting them from information disasters is a requirement of time.

Keywords: State, Society, propaganda, geopolitics, information, globalization, Internet, communication, idea, spirituality, ideology, technology, intelligence, computer, attack, threat, manipulation, fatwa, hedonism, Eurocentrism, extremism, mangroves, social network, democracy.

KIRISH

Globallashuv jarayonida axborot qudratli qurolga aylanishi natijasida inson ongini zabt etishga bo'lgan harakatlar tobora kuchaymoqda. Shu o'rinda, mafkuraviy-g'oyaviy ta'sir o'tkazishda axborot asosiy omil vazifasini o'tayotganligini ta'kidlash o'rinlidir. Hozirda, axborot vositasi yordamida insonlarning qalbi, ongi va ruhiyatiga ta'sir ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Binobarin, har qanday axborot xurujlari bevosita axborot qurollari yordamida amalga oshirilayotganligini ta'kidlash lozim. Bugungi kunga ayrim yetakchi davlatlar bevosita axborotdan vayronkor qurol sifatida foydalanishga intilmoqda. Globallashuv sharoitida, ayrim siyosiy kuchlar va markazlar axborot xuruji orqali yoshlar ongi va qalbiga yot g'oyalarni singdirishga alohida e'tibor qaratmoqda. O'z navbatida, axborot xuruji orqali yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatish jarayonida avvalo, moddiy, ma'naviy, ruhiy omillarga bevosita e'tibor qaratiladi. Binobarin, noan'anaviy va noxolis usullaridan foydalanish zaminida siyosiy maqsadlarini amalga oshirish g'oyasi yotadi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Aytish kerakki, bugungi kunda axborot mafkurani singdirishning asosiy vositasi sifatida qaror topib, g'oyaviy omillar targ'ibotida yetakchi o'ringa chiqdi. Axborotning asosiy manbalari esa ijtimoiy tarmoqlarda ekanligi masalaga yanada jiddiy e'tibor qaratishni taqozo etadi. Zero, insonlar ongini "manipulyatsiya" qilishga bo'lgan urinishlarni ko'pincha ijtimoiy tarmoqlarda muntazam uchratish mumkin. Taassufki, madaniy gegemoniya o'rnatish o'zga hududlarni o'z ta'sir doirasiga olish, inson ongini boshqarishning, ya'ni manipulyatsiyaning keng tarqalgan texnologiyasiga aylanmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, "...gegemonlik xohishidan voz kecha olmayotgan ayrim davlatlar hali-hanuz rivojlanayotgan mamlakatlarni o'z ta'siriga olishga urinmoqda, imperiyachilik kayfiyatidagi arboblarning demokratik g'oyalar eksporti zavqiga berilib ketib, ba'zida davr sinovidan omon chiqqan milliy qadriyatlarga nopisandlik qilmoqda. Geosiyosiy maqsadlarni ko'zlab amalga oshirilayotgan axborot xurujlari ijtimoiy tarmoqlarga ko'chmoqda"[1]. Darhaqiqat, global tarmoq – ulkan resurs. Biroq bu resursdan kim va qanday maqsadlarda foydalanishi ham juda jiddiy masalalar sirasiga kiradi. Xususan, ma'lumotlarda keltirilishicha, bugungi kunga kelib, internet tizimining ijtimoiy tarmog'ida ma'naviy, axloqiy tubanlikni "targ'ib" etuvchi sahifalarning soni bir necha yuz millionni tashkil etmoqda. "Bugun shaxsni manqurtga aylantirish uchun Chingiz Aytmatov yozganidek, tuya terisini odamning taqir boshiga kiydirish shart emas. Endi sodir bo'ladigan urushlar jang maydonida emas, balki mafkura poligonida yuz beradi. Shu jihatdan qaraganda, yoshlarning

ko'p vaqtini internetda behuda sarflashi katta fojia" [2]. Chunki global o'zgarishlar mafkuraviy ta'sir o'tkazish ko'lamini haddan ziyod kengaytirib, beqiyos darajada tezlatib yuborganida ham ko'rinadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ma'lumotlarga ko'ra, ekstremistik oqimlar o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun zamonaviy axborot kommunikatsiyalaridan keng foydalanish, internet tizimining ijtimoiy tarmog'i orqali turli tillarda targ'ibot olib borish va puxta ishlangan strategiya asosida virtual jamoalar tuzishga harakat qilmoqdalar. Masalan, yirik terrorchi tashkilotlar o'z saflariga faol tarzda ijtimoiy tarmoqlar orqali, asosan, 17-35 yosh oralig'ida bo'lgan kishilarni yollamoqda. Bunda psixologik ta'sir samaradorligini yanada oshirish maqsadida ijtimoiy tarmoq a'zolarining sahifalari, qo'yilayotgan rasmlar, sharh va izohlar hamda olib borilayotgan suhbat va mavzularni puxta o'rganadi va shu asosida "nishon"ga olingan shaxsga mavzuga oid materiallar internetning "Facebook", "Odnoklassniki", "Vkontakte", "Viber", "Instagram", "Telegram", "WhatsApp", "Twitter" va "TikTok" kabi keng auditoriyaga ega bo'lgan ijtimoiy tarmoqlar orqali (yozma xabar, matn, fotosurat, stiker rasmlar, audio-video rolik) jo'natiladi va o'zaro aloqa yo'lga qo'yiladi. Natijada, ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan yot va zararli g'oyalar ohangraboddek yoshlarni o'ziga jalb etib boradi. Bu haqda Birinchi Prezident Islom Karimov "Tafakkur" jurnaliga bergan intervyusida, shunday fikr bildirgan: "...ba'zan beozor bo'lib tuyuladigan musiqa, oddiygina multfilm yoki reklama lavhasi orqali ham ma'lum bir mafkuraviy maqsadlar va intilishlar ifodalanadi" [3].

Shu ma'noda, aholini, ayniqsa, yoshlar orasida mutaassiblikka yo'g'rilgan bunday formulalarning tobora ommalashuvi hamda ular da turli ko'rinishdagi buzg'unchi "fatvo"larning berib borilishi muammoning naqadar jiddiy ekanini namoyon etadi. Yoshlar katta kuch hisoblanib, ularning endi shakllanib kelayotgan ongiga nima singdirilsa, o'sha muhrlanadi. Shuning uchun ham radikal oqimlar aynan yoshlarimizni o'z tuzog'iga ilintirishga harakat qiladilar. Yoshlar daqiqlik ishonuvchanligi, kuch-g'ayrati, qiziqqonligi ularning maqsadini amalga oshirishda qo'l keladi.

Tahlilimizga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshi chegaralanmagan iste'molchilar ulardan turli maqsadlarda foydalanmoqdalar. Turli-tuman xorijiy saytlar buzg'unchilik, terrorchilik, behayolik, ekstremizm, fundametalizm kabi yot g'oyalarni yoyishga xizmat qilmoqda. Bularga e'tiborsiz munosabatda bo'lish mumkin emas. Bugungi kun olimlarini o'ylantirayotgan dolzarb muammolaridan biri bu gedonizmdir. Gedonizm tarallabedodlarcha yashash, yoshlik zavqini surib, mehnatsiz hayot kechirishni targ'ib qiluvchi qarash. "Bu so'zning asl ma'nosi yunoncha bo'lib, "insonning butun hayoti faqatgina rohatlanish, aysh-ishratdan iborat", degan o'ta bachkana g'oyani ilgari suradi. G'oyaning mazmuniga e'tibor beradigan bo'lsak, unda, asosan, insonning mayl va ehtiyojlari jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlarga qarama-qarshi qo'yiladi, insonning erkinligini cheklovchi va uning o'ziga xos xususiyatlarini namoyish etishga to'sqinlik qiluvchi har qanday shart va me'yorlarni inkor qiladi. Bu esa yoshlarimiz uchun o'ta xavfli g'oyadir" [4].

Shu bilan birgalikda, jahonda keng yoyilayotgan cho'pchak mafkuralardan yana biri "Yevropasentrizm" deb ataladi. Nomidan ham ko'rinib turgani dek, unda G'arbdan andoza olish, unga taqlid qilish g'oyasi ilgari suriladi. Yevropasentrizm hamm aboplikka da'vo qilayotgan mafkura bo'lib, unga ko'ra barcha xalqlar bir xil taraqqiyot yo'lini bosib o'tadi, faqat hozirgi kunda ular taraqqiyotning turli bosqichlarida turgani bois, bir-biridan farq qiladi. O'z taraqqiyot yo'lini belgilayotgan jamiyatlarga nisbatan Yevropasentrizm mafkurachilari "G'arb izidan bor – bu eng yaxshi dunyolardan biridir", deya "maslahat" beradi.

Aslida esa bir xil dunyo qurish g'oyasi cho'pchakdan bo'lak narsa emas. Zero, dunyoda ko'p sonli rang-barang madaniyatlarning birgalikda mavjud bo'lishi, bir-birini to'ldirib, boyitib turishi insoniyat taraqqiyotining zaruriy sharti hisoblanadi. Insoniyatning hech bir bo'lagi butun dunyoda o'z hayot tarzini majburan tatbiq etishga haqli emas.

Yevropasentrizm mafkurasining yana bir da'vosiga ko'ra, kapitalizm qudratli ishlab chiqaruvchi kuchlarni shakllantirgani bois, G'arb o'z taraqqiyotida boshqalardan o'zib ketdi. Taraqqiyotda G'arbdan orqada qolgan xalqlar esa unga yetib olish uchun o'z mamlakatlarida, aynan, G'arb namunasidagi kapitalizmini qaror toptirishi zarur emish. Vaholanki, G'arb kapitalizmi mustamlakalarning resurslari hisobiga shakllantirilgani hech kimga sir emas.

Shunday qilib, ijtimoiy hayotga ta'sir etuvchi o'zgarishlar, innovatsiyalar, eng avvalo, xalq, millat ongiga ma'lum bir qarashlar va g'oyalar tarzida kirib keladi. Ijtimoiy ongdan o'rin olgan qarashlar va g'oyalar xalqni, millatni harakatga keltiradi, ularni ijtimoiy-madaniy jarayonlarning sub'ektiga aylantiradi. Shuning uchun qarashlar va g'oyalar shunchaki sub'ektiv voqeliklar emas, ular sub'ektlarni harakatga keltirish, ob'ektivlashtirish kuchiga ega. "Globallashuvni shakllantirayotgan va uni axborot xuruji yordamida o'zining "texnologik quroli"ga aylantirayotgan Yevropasentrizm negizida yevropacha hayot tarzini, fikrlashni, yashashni global voqelikka aylantirish yotadi"[5].

Ammo bu dunyo xalqlari, mustaqil davlatlar faqat Amerikanizm va Yevropasentrizm g'oyalari bilan, amerikacha va yevropacha hayot tarziga muvofiq yashaydi yoki yashamoqda, degani emas. Global o'zgarishlar davrida goho Amerikanizm va Yevropasentrizm ta'sirlari mavjud bo'lsa-da, ular milliy o'lkalarda transformatsiyaga uchramay qolmaydi. Shuning uchun ham ba'zan "amerikacha-yaponcha", "amerikacha-koreyscha", "fransuzcha-turkcha" kabi transformatsiyaga uchragan, milliy zaminga moslashtirilgan iboralarga duch kelamiz.

Oxirgi yillarda Xitoy iqtisodiyoti jadal rivojlanib, mahsulotlari dunyo bozorini egalladi. Shunga qaramay, Xitoy madaniyati yoki turmush tarzi dunyo xalqlariga etalon bo'layotgani yo'q. Buning asosiy sababi, Xitoydagi demokratiyaga munosabat masalasi hamda xitoyliklarning o'ziga xos turmush tarzi dir.

Global o'zgarishlar davrida AQSh iqtisodiyoti, siyosati, madaniy mahsulotlari muhim o'rin tutayotgan bo'lsa-da, globallashuvni "amerikancha" deb atash jahonda kechayotgan murakkab, rang-barang, ichki ziddiyatlarga to'la o'zgarishlarni sodda, jo'n talqin etishga intilishdir.

Bizning fikrimizcha, G'arb namunasidagi kapitalizmni qaror toptirish negizida aynan madaniy gegemoniya o'rnatish maqsadi yashiringanini ham unutmaslik dardkor. Moddiyotga berilish, nafsni qondirish, buyumparastlik kabi illatlar ko'rinishida singdirilishi iqtisodiy jarayonlarni jadallashtiradi, chunki barcha narsa sotish va sotib olish mumkin bo'lgan tovarga aylantiriladi. E'tibor berib qaraydigan bo'lsak, jamiyat hayotining barcha sohalarida savdo-sotiq munosabatlari ustuvor bo'lmoqda, "Yemak va tomoshalar" shiori ostida insonlarda iste'molchilik kayfiyati avj olidirilyapti, "Insonning hamyoni qayerda bo'lsa, uning qalbi ham o'sha yerda", [6] degan halokatli g'oya singdirilmoqda. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagilarni ta'kidlaydilar: "Globallashuv jarayonlari inson uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda. Faqat o'zini o'ylash, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste'molchilik kayfiyati turli yo'llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilyapti"[7]. Darhaqiqat, bunday illatlarning yuzaga chiqishiga ba'zi yoshlardagi xudbinlik, faqatgina o'zinigina o'ylash, bugungi kuni bilan yashash, o'z manfaatlarini barcha narsalardan ustun qo'yish kabilar sabab bo'lmoqda. Bu esa o'z do'stlari, aka-ukalari, hatto, jamiyat, davlat, mamlakat manfaatlaridan ham ustun qo'yish holatlari dir. Bunday qarashdagi yoshlar jamiyat qonun-qoidolari, milliy urf-odatlar, an'analarimizga nopisand qarashadi.

Globallashuv sharoitida vujudga kelgan yangi xarakterdagi tahdidlardan biri – "gumanitar intervensiya" dir. Bu tahdid G'arb mamlakatlari tomonidan mustaqil davlatlarning ichki ishlariga noqonuniy aralashuvni anglatadi. "G'arblashtirish" (westernizatsiya) yoki "amerikalashtirish" ga intilish keyingi o'n yillikda madaniy globallashuv sohasidagi kuzatilayotgan eng xavfli tahdid dir. Madaniy globallashuv xalqlarning insoniyat yutuqlaridan birdek bahramand bo'lishini ta'minlayotgani barobarida millatlar ma'naviyati va qadriyatlari takomiliga doir ziddiyatlarni ham keltirib chiqarmoqda.

Buning natijasida, g'arbdagi ayrim qudratli davlatlar turli mintaqalarda o'z geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlarini qondirish uchun "demokratiya" va "inson huquqlarini himoyalash" niqobi ostida keng ko'lamdagi mafkuraviy tazyiqlarni uyushtirmoqdalar. Dunyo miqyosida g'arb madaniyati va ijtimoiy andozalarini turli mintaqalarda joriy etishdagi shoshma-shosharlik, ta'sirchan vositalar orqali uyushtirilayotgan g'oyaviy tajovuzlar xalqlarning milliy xususiyatlari, ko'p ming yillik qadriyatlari va an'alariga, madaniy xilma-xillikka putur yetkazmoqda. Shu o'rinda globallashuvni "yaxlit dunyoning shakllanishi, yagona qudratli davlatning qaror topishi, yagona

jahon madaniyatiga ega xalqaro hamjamiyatning tarkib topish jarayoni"[8] sifatida talqin etuvchilar, demokratiya sohasida global hakamlikka da'vo qiluvchilar ham kam emasligini ta'kidlash joiz. Bu g'oyani zo'r berib qo'llab-quvvatlovchi markazlar va namoyandalar dunyoda istalgancha topiladi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, "bir hovuch rivojlangan davlatlardan bo'lak mamlakatlarning suvereniteti tobora sarobga aylanib bormoqda"[9].

Jamiyatni axborotlashtirish jarayoni global ahamiyatga ega bo'lib, ilmiy, texnikaviy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishning o'zagini tashkil etayotganligini ham his qilish mumkin. Bu jarayon ijtimoiy va shaxsiy hayotning deyarli barcha sohalarida sifat o'zgarishlarini keltirib chiqaradi. Axborotlashgan jamiyat rivojlanishi ta'sirida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va madaniy-ma'naviy hayotda tub o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Aytish joizki, so'nggi yillarda mamlakatimizga nisbatan ham axborot-psixologik tahdidlar sodir etilmoqda. Barchamiz bugungi hayot oldimizga qo'yayotgan bir haqiqatning ma'no-mazmunini tushunishimiz zarur. Bu haqiqat shundan iboratki, agarda kimda-kim bizning mustaqil taraqqiyot yo'limizni, orzu-maqсадlarimizga erishish yo'lini, yangi jamiyat qurish yo'lini to'smoqchi bo'lsa, avvalo, mustaqil dunyoqarashi shakllanib ulgurmagan yoshlarimizning ongi va ichki dunyosining mo'rtligidan foydalanib, ularning ma'naviyatini buzib, bizning azaliy tabiatimizni va muqaddas odatlarimizga mutlaqo zid bo'lgan g'oyalar bilan chalg'itib, o'zining g'arazli va jirkanch niyatlarini amalga oshirish yo'lida qurol qilib olishga urinish natijasida axborot tahdidlarini keltirib chiqaradi. "Axborot tahdidi – bu shaxs, elat, millat, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlariga xavf tug'diruvchi sharoit va omillar haqida to'plangan, qayta ishlangan holda manipulyatsiya shaklida axborot-kommunikatsiya tizimlari orqali tarqatiladigan qo'rqitish, do'q, po'pisa qilishga asoslangan xatarli xabarlar yig'indisi"[10] bo'lib, uning natijasida yoshlarning botiniy-axloqiy ongida shakllangan zohiriy ko'rinishdagi: toshbag'irlik, odamlarga yuzaki munosabatda bo'lish, g'amxo'rlik va rahm-shafqatning yo'qligi, subutsizlik, g'irromlik, ta'magirlik, vijdensizlik, shaxsga befarqlik, kasbiga sovuqqonlik bilan qarash, axloq prinsiplari (insonparvarlik, jamoachilik, vatanparvarlik) va me'yorlarini (burch, vijdon, mas'uliyat, sha'n va qadr-qimmatlar) bila turib atayin buzish, malakali kasbiy bilim egalarini mensimaslik; odamlarga muntazam ravishda shubha bilan qarash, o'ch olish payida bo'lish, zahrini sochish; o'ziga berilgan vakolatlardan mutlaqo noto'g'ri foydalanish, lavozimini suiiste'mol qilishi kabi g'ayrinisoiy hatti-harakatlarni sodir etishlariga olib keladi. Buning natijasida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yoshlar o'rtasida jinoyat sodir etish, diniy ekstremistik oqimlarga, terrorchi guruhlarga qo'shilib ketish holatlari ko'payib borayotganligi kuzatilmoqda. Biz yoshlarga bepisand, begonalarcha munosabatda bo'lsak, ular ham bizdan begonalashadi. O'qishdan, ishdan, jamiyatdan, davlatdan, boringki, hayotdan ko'ngli sovib, xalqimiz iborasi bilan aytganda, qo'lini yuvib, qo'ltig'iga uradi"[11]. Shuning uchun ham, yoshlarimizni zararli axborot tahdidlaridan himoya qilish har bir aqli raso ziyolilarimizning muqaddas burchiga aylanishi hayotiy zaruratdir.

XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar salbiy ta'sirining oldini olish uchun yoshlarning ma'naviy salohiyatini oshirish, axborot almashish imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida zamonaviy axborot texnologiyalari orqali maxsus internet dasturlarini ko'proq tuzib, yoshlarga mo'ljallangan turli mavzular bo'yicha maqsadli loyiha va sohaviy tizimli dasturlarni tayyorlash va ularni doimiy tarzda yangilab berish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Murodova Sh. Ijtimoiy tarmoq so'qmoqlari. –Toshkent: Tafakkur, 2013. №4. –B. 21.
2. Yahyo Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya. –Toshkent: Movaraunnahr, 2016. –B. 5.
3. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. –Toshkent:Tafakkur, 1998. -№2. B-6.
4. Tashmetov T.X. Yoshlar ma'naviyatiga ijtimoiy tarmoqlardagi yot va zararli g'oyalarning ta'siri. \ XXI asrda sotsiologiya va ijtimoiy ishning dolzarb muammolari. Davriy to'plam 3 qism. –Toshkent: Universitet, 2019. – 382 b.

5. Nishanova O.J. Globallashuvning milliy-madaniy modellarga ta'siri. \ Globallashuv sharoitida axborot tahdidlariga qarshi kurashishning zamonaviy texnologiyalarini yaratish muammolari: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. –B. 100.
6. Tashmetov T.X. Yoshlari yot va zararli g'oyalardan himoyalashda axborot kommunikatsiya tizimidan foydalanish texnologiyalari. –Toshkent: O'zR Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi, 2021. –B. 30.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi // Xalq so'zi, 2021 yil 20 yanvar № 13.
8. Азроянц Э. Глобализация катастрофа или путь к развитию? -М.: Новый век, 2002. – С. 64.
9. Бжезинский З. Выбор. Мировое господство или глобальное лидерство. – М.: Международные отношения, 2005. – С. 20.
10. Yaxshilikov J.Y., Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Darslik. –Toshkent: Cho'lpon NMTU, 2018. – 539 b.
11. Mirziyoyev Sh.M. Jismoniy va ma'naviy barkamol yoshlar – bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir // Uning o'zi, Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'yat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. J. 1. –Toshkent: O'zbekiston NMTU, 2017. – B. 507-510.

FALSAFA VA HAYOT XALQARO JURNAL

1 МАХСУС СОН

ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ

СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР 1

PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL

SPECIAL ISSUE 1

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,

Amir Temur Street no.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>, Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Таддиқот г.Ташкент,

улица Амира Темура-п.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>, Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000